

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i>	
ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i>	
SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i>	
UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i>	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i>	
QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i>	
"JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i>	
YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i>	
SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i>	
FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i>	
ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i>	
OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI

Toshboyeva Odinaxon Elbek qizi

Kokand universiteti Andijon filiali "Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi,

KU mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Email: ltoshboeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek internet gazetalaridagi sarlavhalarda pragmatik presuppozitsiyaning leksik-semantik va sintaktik vositalar orqali qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida sarlavhalarining til va kontekst bilan bog'liq xususiyatlari, ularning o'quvchi ongida qanday implikatsiyalar hosil qilishi, shuningdek, turli lingvistik vositalar – leksik birliklar, frazeologik birikmalar, sintaktik strukturalar va intonatsion belgilar orqali presuppozitsiyaning shakllanishi o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek gazetalarida sarlavhalar o'zining kommunikativ funksiyasi bilan bir qatorda, o'quvchini ma'lum kontekstga yo'naltirish va muayyan bilimsal yoki hissiy reaksiyani uyg'otishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Maqola natijalari media lingvistika va pragmatika sohalarida til vositalarining kommunikativ ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: pragmatik presuppozitsiya, sarlavha tahlili, leksik-semantik va sintaktik vositalar, internet gazetalar, ingliz va o'zbek tillari, media lingvistika, kommunikativ funksiyalar.

EXPRESSION OF PRAGMATIC PRESUPPOSITION IN ENGLISH AND UZBEKISTAN INTERNET NEWSPAPER HEADLINES ON THE BASIS OF LEXICAL-SEMANTIC AND SYNTACTIC MEANS

Toshboyeva Odinakhon Elbek qizi

Teacher of the Department of "Foreign Languages" of the Andijan Branch of Kokand University,
Independent Researcher (PhD)

Annotation This article analyzes how pragmatic presupposition is expressed in English and Uzbek internet newspaper headlines through lexical-semantic and syntactic means. Within the framework of the study, the language and context-related features of headlines, what implications they create in the reader's mind, as well as the formation of presupposition through various linguistic means - lexical units, phraseological combinations, syntactic structures and intonational signs are studied. The results show that in English and Uzbek newspapers, in addition to their communicative function, headlines serve as an effective tool for orienting the reader to a certain context and evoking a certain cognitive or emotional response. The results of the article contribute to a deeper understanding of the communicative significance of language tools in the fields of media linguistics and pragmatics.

Keywords: pragmatic presupposition, headline analysis, lexico-semantic and syntactic tools, online newspapers, English and Uzbek languages, media linguistics, communicative functions.


DOI: <https://doi.org/10.47390/yl-dif-y2026v2i2/n26>

Zamonaviy texnologiyalar makonida ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar, yangiliklarni yetkazuvchi vositaga aylangan. Mazkur jarayonda OAV vositalaridan biri bo'lgan *gazeta* alohida ahamiyat kasb etadi, zero unda yetkazilayotgan axborotga nisbatan dastlabki baho, munosabat va talqin ham beriladi, xususan, *gazeta sarlavhalari* orqali berilayotgan axborotning umumiy mazmuni o'quvchi ongida oldindan namoyon bo'ladi.

Gazeta sarlavhalarining pragmatik o'ziga xosligi shundan iboratki, ular, asosan, axborotni to'liq bayon etishdan ko'ra, o'quvchi ongida muayyan bilimlarni faollashtirish, yashirin ma'nolarni yuzaga chiqarish va oldindan taxmin qilinadigan xulosalarni paydo qilishdan iborat. Bu holat *pragmatik presuppozitsiya* hodisasi bilan bog'liqdir, zero *presuppozitsiya* nutqda ifodalanmagan, ammo muloqot ishtirokchilari tomonidan mavjud deb bilingan, oldindan taxmin qilingan, kognitiv ravishda anglab oladigan axborotlardir. Ingliz tilshunosi R.Stalnakerning fikricha, *presuppozitsiya* kommunikatsiya jarayonida ishtirokchilar tomonidan oldindan ma'lum bo'lgan bilim sifatida qabul qilingan axborotlardir[5]. Ta'rifdan anglashiladiki, *presuppozitsiya* axborotning nutqiy vaziyatda qanday qabul qilinishidir. Bu yondashuv *gazeta sarlavhalarining* ham pragmatik tabiatiga xosdir, zotan, sarlavhada axborot isbotlanmaydi, aksincha, uni o'quvchiga qanday yetkazish, unga ta'sir eta olish muhimdir.

Zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlarda axborotdagi *presuppozitsiyani* yuzaga keltiruvchi leksik, sintaktik, semantik, struktur va pragmatik vositalar mavjud bo'lib, ular "*presuppozitsiya qo'zg'atuvchilari*"[3] deb ataladi hamda ularning turli tasniflari ishlab chiqilgan. Jumladan, L.Kartunen *presuppozitsiyani* yuzaga keltiruvchi leksik va grammatik birliklarni keltiradi: **1) faktik fe'llar, 2) implikativ fe'llar, 3) iterative birliklar, 4) definit artikllar va egalik shakllari va 5) vaqt va holatni bildiruvchi ergash gaplar**[2]. S.Levinson esa umumiy **3** turdagi *presuppozitsiya* qo'zg'atuvchilarni beradi: **1) leksik birliklar, 2) struktur konstruksiyalar, 3) pragmatik birliklar**[4]. G.Yule funksional jihatdan quyidagi *presuppozitsiya qo'zg'atuvchilarini* tasniflaydi: **1) mavjudlik, 2) faktik, 3) leksik, 4) struktur, 5) nofaktiv va 6) qarama-qarshi faktli presuppozitsiya**[7].

Yuqorida keltirilganidek, tilda pragmatik *presuppozitsiyani* yuzaga chiqaruvchi bir nechta qo'zg'atuvchilar bor, biz o'z tadqiqotimizda o'zbek va ingliz *gazeta sarlavhalaridagi presuppozitsiyani* namoyon etuvchi asosiy **4** leksik-semantik birliklarni tasnifladik:



1-rasm. Internet gazeta sarlavhalarida *presuppozitsiyani* vujudga keltiruvchi leksik-semantik birliklar.

Keltirilgan tasvirdagi har bir leksik-semantik birlik o'ziga xos *presuppozitsiyani* shakllantiradi, masalan, ko'chma ma'nodagi so'zlar axborotning ijobiy yoki salbiy konnotatsiyaga egaligini, antonimik birliklar mutanosiblik, zidlik yoki tanqidiy munosabatni,

sinonimik birliklar voqea-hodisaning kommunikativ maqsadini, uyadosh so'zlar esa axborotni kontekstual xususiyatlarini ifodalaydi.

Ko'chma ma'nodagi leksik birliklar o'zbek va ingliz internet *gazeta sarlavhalarida* axborotni bevosita bayon etmasdan, o'quvchi ongida oldindan mavjud bo'lgan bilimlarni baholovchi va interpretativ usulda shakllantiradi. Bunday birliklar metaforik va semantik obrazlar bilan sarlavhadagi voqeani hissiy bo'yoqdorlikda bayon etadi. O'quvchi esa muallif matn ichida ifodalamoqchi bo'lgan mazmunni sarlavhaning o'zidayoq oson anglaydi hamda axborotni ijobiy yoki salbiy konnotatsiyada ekanligini farqlaydi.

O'zbek tilida: *Toshkentda o'zini distributor sifatida tanitib, fuqarolarni chuv tushirgan shaxs qamoqqa olindi*[1].

Mazkur sarlavhada *chuv tushirmoq* leksemasi ko'chma ma'noda qo'llanib, *aldash, firibgarlik yo'li bilan ishonchni suiiste'mol qilish va buning oqibatida moddiy zarar yetkazish* kabi semantik ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu frazeologik birlik orqali nutqda quyidagi presuppozitiv ma'lumotlar ifodalanadi:

a) *aldovning turi presuppozitsiya qilinadi, ya'ni mazkur holatda aldov turi firibgarlik sifatida talqin etiladi.*

b) *aldovning ko'lami haqida yashirin axborot uzatiladi: chuv tushirmoq birikmasi, odatda, katta miqdordagi moddiy zarar yetkazilgan holatlarga nisbatan qo'llanadi.*

d) *aldovning darajasi va davomiyligi taxmin qilinadi, ya'ni ushbu harakat tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan, puxta tayyorgarlik asosida amalga oshirilgan jinoyat ekanligi anglashiladi.*

e) *aldovni sodir etgan shaxsning ijtimoiy-psixologik holati aniqlanadi, ya'ni u ko'pchilik ishonchiga kira oladigan, ayyor, jinoyat sodir etish imkoniyatiga ega shaxs sifatida gavdalanadi.*

Xulosa. Demak, sarlavhada *chuv tushirmoq* leksemasining ko'chma ma'noda qo'llanishi tinglovchi yoki o'quvchi ongida *"qanday yo'l bilan?", "qanday maqsadda?", "kim tomonidan?"* kabi savollarga oldindan javob bo'la oladi. Chunki ushbu birlik orqali tinglovchi shuni presuppozitsiya qiladi: o'zini ishonchli shaxs sifatida ko'rsata olgan subyekt firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning mol-mulkini o'zlashtirgan hamda bu harakatni ataylab, shaxsiy manfaat va boylik orttirish maqsadida rejalashtirib, amalga oshirgan.

Ingliz tilida: *The royal fertilizer lagoon kicking up a stink in Sandringham*[6].

Sarlavhada qo'llanilgan *kicking up a stink* ingliz tilidagi idiomatik ibora bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda *"badbo'y hidni tepib chiqarish"* ma'nosini beradi. Albatta, yuqoridagi gapda ko'chma ma'noda qo'llanilib, quyidagi pragmatik mazmunlarni ifodalaydi:

1) *Jamoatchilik noroziligini keltirib chiqarish;*

2) *Salbiy reaksiya uyg'otish;*

3) *Muammo yoki mojaro tufayli katta shov-shuvga sabab bo'lish.*

Mazkur iboraning qo'llanilishi nutqda bir qator presuppozitsion ma'nolarni yuzaga chiqaradi:

a) *muammo obyektiv mavjud, uni inkor etish yoki e'tiborsiz qoldirish mumkin emas;*

b) *ushbu holat jamoatchilik noroziligiga sabab bo'layotgani anglashiladi;*

d) *muammo e'tibordan chetda qolmagan, aksincha sezilarli darajada dolzarb va jiddiy tus olayotgani nazarda tutiladi;*

e) *muammo salbiy oqibatlarga olib kelayotgani yoki olib kelishi mumkinligi bildiriladi.*

O'zbek tilida: *Ko'zni moshdek ochadigan vaqt keldi, yoxud yangi tizimga qarshilar uchadi*[8].

Yuqoridagi sarlavhada 2 frazeologik birlik ko'chma ma'noda qo'llangan: *ko'zni moshdek ochmoq* va *uchmoq*. Dastlab, *ko'zni moshdek ochmoq* iborasining semantik ma'nolarini izohlaymiz. Bu frazeologik birlikni lug'aviy ma'nosi fiziologik harakatni ifodalasada, u nutqda quyidagi ko'chma, metaforik ma'nolarda ishlatiladi:

- 1) *voqealikka anglash, haqiqatni tushunib yetish;*
- 2) *hushyorlikka chaqirish;*
- 3) *ilgari e'tibordan chetda qolgan holatni anglash.*

Sarlavhadagi ko'chma ma'noda qo'llanilgan ikkinchi leksema esa *uchmoq* bo'lib, u kontekstdan tashqarida, o'z ma'nosida qo'llanilsa, obyektning yoki shaxsning biror obyekt yordamidagi jismoniy parvoz holatini ifodalaydi. Ammo u quyidagi metaforik ma'nolarni o'zida mujassam etadi:

- 1) *lavozimidan chetlatish;*
- 2) *tizimdan chiqarib yuborish;*
- 3) *jazoga tortish yoki imkoniyatidan mahrum etish.*

Har ikkala leksema ham mavjud kontekstdagina ma'lum *presuppozitsiyalarni* ifodalay oladi:

- a) *ko'zni moshdek ochadigan vaqt keldi iborasi tizimda ilgari e'tibordan chetda qolgan yoki ataylab yashirilgan jiddiy muammolar mavjud bo'lgani taxmin qilinadi;*
- b) *mazkur ibora hozirgi jarayonga yoki mavjud muammolarga oldingi davrlarda loqaydlik bilan qaralganini bildiradi;*
- d) *qarshilar uchadi ifodasi esa yangi tizimning qat'iy tartib-qoidalarga asoslangani, qarshilik ko'rsatganlarga murosasiz munosabatda bo'lishini nazarda tutadi;*
- e) *bu ifoda, shuningdek, yangi tizimda ochiq yoki yashirin tarzda qarshilik bildirayotgan ijtimoiy guruh yoki shaxslar borligi presuppozitsiya qiladi;*
- f) *uchadi leksemasi qarshilik bildirganlar albatta, ishdan olinadi, jazoga tortiladi kabi ma'nolarni ham ifodalaydi.*

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Darakchi.uz. (2025, 29-iyun). <https://darakchi.uz/oz/209719>
2. Karttunen, L. (1979). Presuppositions. In P. Cole (Ed.), *Syntax and semantics* (Vol. 11, pp. 181–186). New York, NY: Academic Press.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics* (pp. 168–184). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics* (pp. 179–181). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Stalnaker, R. (1974). *Pragmatics*. In M. Munitz & P. Unger (Eds.), *Semantics and philosophy* (pp. 197–213). New York, NY: New York University Press.
6. The Telegraph. (2024, December 28). Royal fertiliser lagoon kicking up a stink, Sandringham, UK. <https://www.telegraph.co.uk/news/2024/12/28/royal-fertiliser-lagoon-kicking-up-a-stink-sandringham-uk/>
7. Yule, G. (1996). *Pragmatics* (pp. 25–27). Oxford: Oxford University Press.
8. Qalampir.uz. (2024, 27-dekabr). Prezidentning murojaatnomasida nimalar aytili. <https://qalampir.uz/uz/news/prezidentning-murozhaatnomasida-nimalar-aytili-129443>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.